

## MUMTOZ ASARLAR LUG‘ATLARI VA MORFOLOGIK TAHLIL QILISH MODELLARI

**Raximbayev Musobek Komiljon o‘g‘li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adiblari tamonidan yozib qoldirilgan asarlar lug‘atida qo‘llanilgan so‘zlarning morfologik tahlili modelini ishlab chiqish tahlil qilingan. Morfologik model yordamida o‘zbek mumtoz adiblari lug‘atini morfologik tahlil dasturiy ta‘minotni ishlab chiqishgacha bo‘lgan bosqichlari keng yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek mumtoz adiblari, elektron lug‘at, mumtoz lug‘at, morfologiya, mumtoz asarlar, model, matematik model.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье анализируется разработка модели морфологического анализа слов, используемых в словаре произведений узбекских классиков. Морфологический анализ словаря узбекских классиков с использованием морфологической модели охватывает этапы, предшествующие разработке программного обеспечения.*

**Ключевые слова:** узбекская классика, электронный словарь, классический словарь, морфология, классика, модель, математическая модель.

### ABSTRACT

*This article analyzes the development of a model for the morphological analysis of words used in the dictionary of Uzbek classics. Morphological analysis of the dictionary of Uzbek classics using a morphological model covers the stages preceding software development.*

**Keywords:** Uzbek classics, electronic dictionary, classical dictionary, morphology, classics, model, mathematical model.

### KIRISH

Tabiiy tillar insonlar o‘rtasida aloqani taminlovchi oddiy bir vosita bo‘libgina qolmay balki butun bir millatning ko‘zgusi hisoblanadi. Hozirda o‘zbek tilshunosligi bo‘yicha ko‘plab yangidan-yangi loihalarga qo‘l urilmoqda, jumladan elektron lug‘atlar va elektron tahlil qilish dasturlari ishlab chiqilmoqda, lekin hali hanus mumtoz manbalar borasida muammolar yetarlicha bo‘lgani sababli o‘zbek mumtoz adiblarimiz ilimlarini va asarlarini o‘rganish borasida yetarlicha elektron qo‘llanmalar mavjud emasdir.

## **MUHOKAMA**

O'zbek tilshunosligida va o'zbek adabiyotini jahon internet tarmog'ida munosib o'rin egalashi uchun kompyuter dasturiy ta'minotlarini yaratish muhim masala hisoblanadi.

Hozirgi vaqtgacha o'zbek mumtoz adiblari asarlarini tahlil qilishga mo'ljallangan algoritm va dasturiy ta'minotlar yaratish bo'yicha qilingan ilmiy izlanishlar yetarli darajada emas, shu sababli ushbu ilmiy maqolada o'zbek mumtoz adiblari asarlarini tahlil qilish modellari uchun algoritm va dasturiy ta'minotlar ishlab chiqish masalasini ko'rib chiqamiz.

Hayot qonuniyatlari tobora milliy taraqqiyot milliy til mavqei va nufuzi yuksalishi bilan bo'lishiga iqror qilib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi PQ-4479-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"<sup>1</sup>gi qarorida, jumladan, O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda" – deb ta'kidlanadi. Mamlakatimizdagi keng ko'lamli islohotlar o'zbek tilining ham Davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning mavqeini ko'tarish bo'yicha qabul qilingan qonun va qarorlar sharqshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining yangi bosqichga ko'tarilishiga ham sabab bo'ldi. "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir" deyiladi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>2</sup>gi farmonida.

O'zbek mumtoz asarlari bizgacha yetib kelganligini o'zi biz uchun bir baxtdir, chunki bizgacha yetib kelgan manbalar ezgulikga, muhabbatga, tinchlikga yetaklovchi hikmatlar xazinasidir.

Adiblarimizning mumtoz asarlarida har bir so'z kata ahamiyatga ega bo'lgan holda ilmiylik borasida katta ma'no kasb etadi. Har bir tilning o'ziga yarasha imkoniyatlari bo'lgani kabi o'zbek tilining ham o'zigahosligi shundagi so'zlar ma'noviy jihatdan bir biriga tobelanib kelishi ko'p hollarda uchrab turadi.

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019-y., 10/19/4479/4203-son

<sup>2</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.10.2019 й., 06/19/5850/3939-сон

## NATIJA

Adiblarimizning mumtoz asarlarida qayt etilgan soʻzlar har bir ijodkorning yangi qirralarini namoyon qilib boradi. Badiiy asarlar yaratilishi mobaynida har bir oʻzbek mumtoz adiblari oʻz lugʻatini kashf qila boshlaydi va shu yaratilgan lugʻat asosida oʻquvchiga yozilgan asarni oʻqish mazmunli boʻladi. Yaratilgan asarga qoʻshimcha sifatida yangi soʻzlar asarlar qiyofasiga yangicha jilo beradi. Asarlarda qayt qilib boriladigan yangi soʻzlar majmuasi yangidan-yangi lugʻatlar yaralishiga sababchi boʻladi.

Mumtoz lugʻatlar bu – mumtoz asarlar yaratilishi bilan bir qatorda shakllantirilib boriladigan soʻzlar majmuasi boʻlib, yangi soʻzlarning maʼnolarini va ularda soʻzlarning qoʻllanilishini izohlab oʻtadi.

Alisher Navoiy ijodiga nazar tashlasak sheri misralar va baytlar yozishi davomida minglab soʻzlar jamlanmalari Navoiy asarlari lugʻatlarida oʻz aksini topgan. Navoiyning bizgacha yetib kelgan asarlari lugʻati 4 ta jildidan iborat boʻlib lugʻat oʻz ichiga soʻzning izohi va qoʻllanilishini mujassam qilib boradi.

Alisher Navoiy asarlarida qoʻlanilgan soʻzlar lugʻati tahlili:

*Karak xayliga qarchigʻay darmiyon,*

*Alar choʻja yangligʻ, bu bir mokiyon*

*Saddi Iskandariy (Xamsa), 1285<sup>3</sup>.*

Quyidagi bayt tarkibida qatnashgan soʻzlar qoʻlanilishidan maʼlumki asarda bizgacha yetib kelgan izohli lugʻat soʻzlari oʻz oʻzlarini sezasiz. Deylik lugʻatda qatnashgan “*darmiyon*”- soʻzini izohlab oʻtaylik:

“*darmiyon*”soʻzi oʻrtada, orada - degan maʼnolarni anglatadi.

Bunga oʻxshash soʻzlar Navoiy ijodida koʻplab uchraydi va izohlanib boriladi.

Marfologik tahlil algoritmlarini yaratish tabiiy tillarni qayta ishlash jarayonida eng birinchi qilinishi kerak boʻlgan ishlardan biri hisoblanadi.

Morfologik tahlil jarayonida soʻzlar oʻzak va unga qoʻshiluvchi affikslar oʻrganib chiqiladi.

Mumtoz asarlar lugʻatlarini marfologik tahlil qilish modelini qurish jarayonida oʻzbek tilidagi soʻzlarni oʻz navbatida 4 ta turli affikslarga ajratgan holda oʻrganamiz:

1. Omonim affikslar shakli bir xil boʻlib, maʼno va vazifasiga koʻra bogʻlanmaydigan qoʻshimchalardir: -ki: tepki - ot yasovchi, kechki-sifat yasovchi.
2. Sinonim affikslar shaklan har xil umumiy maʼnosi bir xil boʻlgan qoʻshimchalardir: -li,-dor: unumli - unumdor

<sup>3</sup> Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. 4 jildlik (1983-1985)

3. Antonim affikslar bir-biriga zid ma'noli qo'shimchalardir: kuchli-kuchsiz, mazali – bemaza, g'ayratli-serg'ayrat

4. Ko'p ma'noli affikslar birdan ortiq leksik va grammatik ma'noni shakllantiruvchi qo'shimchalardir: - chi qo'shimchasi: temirchi (asosan anglashilgan kasbga ega bo'lgan shaxs oti).


Umumiy holda o'zbek tilida so'zning yasalishi quydagicha ketma-ketlikda bo'ladi:

**[so'z]+ [so'z yasovchi] + [lug'oviy shakil yasovchi]+ [sintaktik shakl yasovchi]**

Yuqorida sanab o'tilgan so'z yasalish formulasiga ko'ra misol tariqasida so'zlarni ko'rib chiqamiz: **sinif + dosh + lar + dan**

- **sinif** – so'zning asosi,
- **dosh** – so'z yasovchi qo'shimcha,
- **lar** – lug'oviy, shakl yasovchi qo'shimchalar,
- **dan** – sintaktik shakl yasovchi (qaratqich kelishik).

Endi so'zlarni qo'shimchalarini ajratib olgan holda asosni aniqlab beruvchi algoritimni yaratamiz. Uning umumiy ko'rinishi quydagi chizmada keltirilgan:



Yuqorifa qurilgan blok sxema asosida dastur yaratamiz va uni ishga tushuramiz va so'zlarni tahlil qilib olamiz. Quyida “suvshunos” so'zini morfologik tahlil

qilingan soʻzning asosi "suv" affiksi "shunos" va undan tashqari qoʻshimcha ravishda soʻzning kelishiklarda tuslanishi, soʻzning turkumi ham koʻrsatib beradi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda hozirgi davrga kelib dunyoda koʻplab rivojlanishlar boʻlmoqda tilshunoslikda ham anchagina oʻzgarishlar va yutuqlar kuzatilyabdi. Har bir davlat milliy tili uchun oʻz korpusini yaratish borasida ish olib bormoqda. Milliy oʻzbek tilshunosligida ham koʻplab shunga oʻxshash jarayonlar tilshunoslarimiz taʼmonidan oʻrganilmoqda. Milliy oʻzbek tilshunosligida matnlar, baytlar, soʻzlar tahliliga nazar solar ekanmiz milliy korpusimizni qurush uchun albatta mumtoz adiblar asarlaridan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

### **REFERENCES**

1. «Oʻzbek tili morfem lugʻati». T., Oʻqituvchi»1997 yil
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. 4 jildlik (1983-1985)
3. Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobidinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Qurbonov D. Hozirgi oʻzbek tili faol soʻzlarning izohli lugʻati – T; —Sharq 2001 yil
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. «Hozirgi oʻzbek adabiy tili»-T., 1992 yil